O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
INVESTITSIYALAR, SANOAT VA SAVDO VAZIRLIGI

MINISTRY OF INVESTMENT, INDUSTRY AND TRADE
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

16.01.26 dagi 03-21-2-00029 -son

Hurmatli xonimlar va janoblar!

O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi nomidan va shaxsan o‘z nomimdan Iteca Exhibitions hamkorlari - ICA Eurasia Group va Congresses of Central Asia (CSA) - bilan birgalikda 2026-yilda bo‘lib o‘tadigan ko‘rgazma va konferensiyalar ishtirokchilari va mehmonlarini qutlashdan mamnunman.

Yangi O‘zbekistonning izchil rivojlanishi iqtisodiyotning barcha sohalarida dinamik o‘sishni ta’minlaydi, qulay investitsiya muhitini yaratadi hamda xalqaro hamkorlik, sheriklik va qo‘shma loyihalar uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ushbu sohadagi tegishli daviat organi sifatida xalqaro ko‘rgazmalar va konferensiyalarning xorijiy kompaniyalar va investorlarni O‘zbekistonning tez rivojlanayotgan bozoriga jalb qilishdagi muhim rolini yuqori baholaydi.

Ishonchim komilki, Iteca Exhibitions va uning hamkorlari tomonidan o'tkaziladigan ko'rgazma va konferensiyalar an'anaviy ravishda zamonaviy uskunalar, ilg'or texnoiogiyalar va innovatsion materiallarning keng assortimentini namoyish etadi, boy va ma'lumotli biznes dasturi esa O'zbekistonning investitsiya jozibadorligini va o'zaro manfaatli hamkorlik salohiyatini yaqqol namoyish etadi.

Tadbirning barcha ishtirokchilari va mehmonlariga samarali ish, muvaffaqiyatli biznes aloqalarni o'rnatish va maqsadlariga erishishlarini tilayman.

Желаю всем участникам и гостям мероприятий плодотворной работы, успешного установления деловых контактов и достижения намеченных целей. I

Teshabaev X.
Vazir o'rinbosari

100029, Toshkent shahri, I.Karimov ko'chasi, 1uy. Tel.: +998712385190; +998712385294; +998712385290; +998712385090. exat: miit@exat.uz. www.miit.uz

Контактное лицо: Д.Хабибуллаев
Тел: +998 78-238-50-00 (190)

***00043092**